Abdullayeva Adiba Shokirjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
“Pedgogika nazariyasi va tarixi” yo‘nalishi magistranti

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10464978

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlikning rivojlantirishning ahamiyati, aksiologik yondashuv atamasi, kreativlikning mohiyati kreativlikni rivojlantirish texnologiyalari bayon etilgan. Muallif tomonidan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida kreativlikning rivojlantirish usullari ishlab chiqilib, tahlil qilingan hamda hulosalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: aksiologik yondashuv, kreativlik, kreativlikni rivojlantirish texnologiyalari.

Bugungi kunda barkamol avlodni asrlar osha sayqal topgan milliy qadriyatlarimiz, urfodatlarimiz ruhida tarbiyalashga, ma’naviy boyligimiz va madaniy merosimizni har tomonlama o‘rganib, ta’lim-tarbiya sohasida ham qo‘llashga keng imkoniyatlar yaratildi.Darhaqiqat Prezidentimiz Sh.M Mirziyoyev ta’kidlagandek “Agar jamiyatning tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning ruhi va ruhiyati ma’naviyatdir” degan qarashlarida ta’lim jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanish, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish dolzarb ijtimoiy masala sifatida e’tirof etish lozim. O‘zbekiston ta’lim bozorini maktabgacha, umumiy o‘rta, professional, oliy ta’lim, ilmiy tadqiqotlar va malaka oshirish ta’lim bozorlari tashkil etadi. Ularda inson kapitalini rivojlantirish uchun juda katta mablag‘ ajratilyapti. Shu o‘rinda Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” degan fikrni bejiz ta’kidlamagani yaqqol namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida kreativlikning rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini anglash uchun aksiologik yondashuv nima ekanligini bilib olish lozim.

Aksiologik yondashuv - bu ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar tizimiga yo‘naltirilgan nazariy g‘oyalar majmui bo‘lib, ularning o‘zagi inson hayoti, erkin ijodiy faoliyat va insoniy muloqotning qadriyatini tushunish va tasdiqlashdan iborat.

Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi umuminsoniy madaniyatning ma'naviy va moddiy qadriyatlarini o‘zlashtirishdir.

Falsafiy lug‘atlarda aksiologiya qadriyatlar haqidagi fan sifatida ta'riflanadi. Batafsilroq ta'rif "Pedagogik lug‘at"da G.M.Qadjaspirova (M. 2000): aksiologiya - bu shaxs, jamoa, jamiyatning moddiy, madaniy, ma'naviy, axloqiy va psixologik qadriyatlari, ularning voqeliklar olami bilan aloqasi, qadriyatlar va me'yoriy tizimdagi o‘zgarishlar haqidagi falsafiy ta'limot, tarixiy rivojlanish jarayoni.

Aksariyat olimlarning fikriga ko‘ra, qadriyatlar –bu kishilik jamiyati sivilizatsiyasini, madaniyatini butun bir spektorini o‘z ichiga oladi va muqaddas dargoh oilada shakllanadi, sayqal topadi avloddan avlodga o‘tadi, odamlarning maqsadlari va xatti-harakatlarining me’yorlari, har bir inson ongida mavjud bo‘lgan ko‘rsatmalar haqidagi umumlashtirilgan asosiy g‘oyalar. Pedagogik manbalarda shaxsning ma’naviy-axloqiy madaniyati deganda insonning o‘z-o‘zini anglashining eng yuqori holati tushuniladi, u manba va ijodiy kuch sifatida mavjudlikning eng yuqori qadriyatlariga qaratilgan odamlarning birgalikdagi hayoti va ularning o‘zini o‘zi yaratish qadriyatlarini shakillantirish.

Ta’limning ma’naviyatni tarkib toptirishdagi ahamiyati uni qadriyatli bilimlarni uzatish va uning asosida insonda qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvorni shakllantirishda ekanligini o‘z vaqtida Aflo-

tun ham ta'kidlab o'tgan edi. U davlatning asosini qolgan barchasi unga bog'liq bo'lgan yagona birlik aks ettiradi, deb hisoblagan. Bunday asos - oliyjanoblikdir. Olim yuksak oliyjanoblik sifatida hech narsa yaxshilik va yomonlik haqida unday ma'lumot bera olmaydigan bilimni e'tirof etadi. Bilimda haqiqiy oliyjanoblik o'z ifodasini topganligini esa ta'lim jarayonida o'rganish mumkin.

Qadriyatlar yosh shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining asosiy mazmunini belgilaydi. Rivojlangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar O'zbekistonning madaniy rivojlanish jarayoni. Bu xayriya, adolat, sharaf, vijdon, iroda, shaxsiy qadr-qimmat, ezgulikka ishonch, o'z, oila va Vatan oldidagi ma'naviy burchni bajarish istagini o'yg'otishga qaratilgan.

Milliy qadriyatlar asosida ijodiy qobiliyatni shakllantirish yosh avlodga milliylik singdirilgan zamonaviy ta'lim olish imkonini beradi. Milliylik bor joyda esa o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga hurmat sifatlari sayqallanib boradi. G'oyaviy bo'shliqlar kamayadi.

Endi kreativlik atamasiga to'xtalib o'tsak:

Kreativlik – bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo'ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.

Kreativlik – boshqalardan ko'ra ijodkorlik bilan farqlana olishdir.

Kreativlik – o'z so'ziga, o'z uslubiga egalikdir.

Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

Kreativlik - aql mahsulidir.

O'qituvchi o'z iqtidorini, iste'dodini, ishchanligi, bilimi va saviyasini dars orqali namayon etadi.

Hozirgi davr o'qituvchisi har qanday topshiriqni bajara oladigan, bir vaqtning o'zida o'quvchini faolligini oshirish, yangi mavzuni o'zlashtirish bilan bir qatorda dunyoqarashini kengaytirishga, ma'naviy tarbiyalashga hizmat qiluvchi metodlar qo'llay olish va samarali natija olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Tasavvur qiling, sizning fikringizcha, o'ylab ko'ring kabi so'zlar bilan o'quvchini fikrlashga undaydi.

O'qituvchining kreativligi – o'quvchilarni darsga mahorat bilan jalb qilish qobiliyati, so'zamonligi, o'zini namunali tuta olishi, harakatchanligi, topqirligi, darsga noananaviy yondashuvi, muammolarga yechim topa olishi bilan yaqqol namoyon bo'ladi.

Aksiologik yondashuv asosida pedagoglarda kreativlikni rivojlantirish izlanish va o'z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi. Pedagoglarda ijodiy qobiliyat yuqori darajada bo'lsagina o'quvchilarda ham ta'lim-tarbiya sezilarli tarzda ijobiy tomonga o'zgaradi. Aksiologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrini erkin bayon eta olish, mantiqiy fikrlash, bolada ijodiy qobiliyat shakllanib borishiga, milliy qadriyatlarni sevish va ardoqlash kabi fazilatlar shakllanishiga ko'maklashadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida kreativlikni shakllantirish milliy tarbiyani zamonaviy ta'lim bilan chambarchas bog'lashga hamda o'qituvchini yangi metodlar yaratishga undaydi. Ijodiy qobiliyat yanada shakllanib boradi. Ta'limda yangiliklar yaratilishiga xizmat qiladi.

Eng asosiysi, jamiyatga milliy qadriyatlar singdirib boriladi. Milliy tarbiya va zamonaviy ta'lim bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligi tushuniladi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Uljayevna O. F. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari//barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – C. 654-659.

2. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur chashmalari" T.: 2013y.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

4. Бурцева, И.В. Аксиологический подход к развитию духовности студентов ву-

за / И.В.Бурцева // Мир науки, культуры, образования. –2016. –No 2 (57). С. 11 –13.3

5. Yuldashev J. DEVELOPING AXIOLOGICAL WORLD VIEW IN STUDENTS IN TEACHING HISTORY //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 4. – С. 281-283.

6. Юлдашев Ж. Аксиологический Подход В Обучении Истории: Содержательный Компонент //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – С. 185-187.

Абдуллаева Адибы Шокирджона кизи
Наманганский государственный педагогический институт
Магистрант специальности «Теория и история педагогики»

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация В статье раскрывается значение развития креативности у учителей начальных классов на основе аксиологического подхода, термина аксиологический подход, сущности творчества и технологий развития креативности. На основе аксиологического подхода автором разработаны, проанализированы методы развития творческих способностей будущих учителей начальной школы и представлены выводы.

Ключевые слова: аксиологический подход, креативность, технологии развития креативности.

Abdullayeva Adiba Shokirjon kizi
Namangan State Pedagogical Institute
Master's student of "Theory and History of Pedagogy"

TECHNOLOGY OF CREATIVITY DEVELOPMENT IN FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS BASED ON AXIOLOGICAL APPROACH

Abstract The article reveals the importance of developing creativity among primary school teachers on the basis of the axiological approach, the term axiological approach, the essence of creativity and technologies for the development of creativity. Based on the axiological approach, the author has developed and analyzed methods for developing the creative abilities of future primary school teachers and presented conclusions.

Key words: axiological approach, creativity, technologies for the development of creativity.